



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzili: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 30-sentyabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 9-son (72).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining
kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb
izohlanishi shart. Matn hamda reklamardagi ma'lumotlarning
to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar
bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va
mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam
beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"
jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola
berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va
10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy
maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref 10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ

BIZNI ITIMOIY TARMOQLARDA QUYYDAGI MANZILLARDA KUZATING:



10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Xolmuratova Maxliyo Joniql qizi. Qishloq xo'jaligi turizm terminlarining leksik-semantik tasnifi.....	13
Xolova Shahnoza Shuxrat qizi. Qandolat mahsulotlarining dialektik xususiyatlari.....	17
Botirova Adiba Erkinovna. Elektron grammatik lug'atlarning yoshga mos so'zligini yaratish va ishlab chiqish talablari.....	20
Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi. Tildagi ortiqchalikning lingvokognitiv xususiyatlari.....	32
Bekbosinova Dilfuza Kuralbayevna. Qoraqalpoq maktablarida ingliz tilini o'qitishning qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish uslublari.....	35
Saidova Muxayyo Umedilloevna. Badiiy diskursda kogeziya va kogerensiyaning kognitiv voqelanishi.....	40
Zaripova Matluba Kulfidinova. Лексико-семантические особенности пейоративных единиц в узбекском и русском языках.....	46
Jo'rayev Nabi Narziyevich. Badiiy matn va uning lingvokulturologik tahlili.....	49
Xolnazarov Umid Erkinovich. Konseptual metaforalar asosida lingvomadaniy kod ifodasi.....	52
Qodirova Muhabbat. "Yo'qotilgan avlod" tushunchasi va uning adabiyotda namoyon bo'lishi.....	66
Niyazmetova Dildora Davletovna. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning fikrlash jarayonidagi ahamiyati.....	88
Davletova Shalola. Zamoniy o'zbek adabiyotidagi rang va sonlarning ramziy ma'nolari: Nazar Eshonqul asarlari misolida.....	93
Shabanova Sadaf Djumaliyevna. Turk va o'zbek maqollarida turmush o'rtoq va ona obrazlari: qiyosiy tahlil.....	101
Xaitbaeva Venera Mirzaliyevna. А.Дабылов поэзиясында Мақтымқұлы поэтикалық дәстүрлериниң даўамыйлығы.....	114
Samatov Farhod Muminovich. Televideniye leksik birliklarining etimologik va leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tahlili.....	119
Azimbaeva Narqiza Tuxtamurodovna. Парвин Эйтисомий девонида ўхшатишларнинг тузилиши ва мазмуни.....	126
Usahov Rustem Muratovich. Awdarma teoriyasi ham ekvivalentlik darajeleri: ingliz-qaraqalpaq tilleri kontekstinde.....	130
Abdialimova Sarvinov. Internet terminlarining ichki manbalar asosida shakllanishi.....	138
Kazbekova Eleonora Paraxatovna. Факторы правильного определения содержания обучения при преподавании английского языка.....	144
Sayipova Dilobar Raximovna. Adabiyot fanini o'qitish orqali mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.....	158
Rejapov Izzatbek Olimbayevich. Sonlar ramziyligi universal-madaniy kod sifatida.....	161
Iskandarova Navbahor Ilhomovna. Zamonaviy ingliz dramaturgiyasida ayol obrazlari poetikasining nazariy asoslari.....	170
Allambergenov Anvar Erkabayevich. "Yodgorliklar" asarida keltirilgan navro'z haqidagi rivoyatlar xususida.....	174
Kazakbayeva Dilrabo. Forsiy manbalarda murakkab strukturali janrlar.....	177
Boboyozova Nilufar Gayratovna. Tilshunoslikda murojaat maydoniga nazariy yondashuv.....	185
Gulimmatova Rashida Samandar qizi. "Shaytonning tangriga isyon" she'riy dramasi yaratilish tarixi va lingvopoetik tahlili.....	192
Soxibova Dilnoza Ergashevna. Ingliz va o'zbek tillarida bosh kiyim nomlarining boshqa so'zlar bilan omonimik munosabatlari.....	196
Yusupova Dilnoza Umarjonovna. Ingliz va o'zbek siyosiy nutqida hissiy ifodaning qiyosiy tadqiqi.....	210
Babaniyozova Oydin Allaberganovna. XX asr nemis va jahon adabiyotida Hermann Hesse merosi.....	231
Ismoilov Xurmatillo To'liqinjon o'g'li. Yozma so'zlashuv nutqining yuzaga kelishi va ahamiyatiga doir.....	237
Nasirdinova Oydinniso Dagarovna. Ishtixonliklar nutqida xalq maqollarining o'ziga xosligi (Matluba ona talqinida).....	241
Avezova Aziza Mavlonjonovna. "Ey ishq, ajib kimiyosen, bal oinai jahonnomosen".....	258
Choriyeva Oysha Shavkat qizi. Boshlangich maktablarda chet tilini o'zlashtirishga o'yinga asoslangan o'quvning ta'siri.....	265
Sattibayeva Surayyo Jaxongir qizi. O'zbek dialektologiyasida Xorazm shevalarining lingvistik tadqiqi.....	269
Ermag'ambetova Gulparshin Maratovna. I.Yusupov she'riyatida "gul" konsepti.....	273
Jumag'aliyeva Navbahor. O'zbek tili leksikasida globallashtirish jarayonining aks etishi: xorijiy o'zlashmalarining tahlili.....	277
Jumanyazova Muxabbat Xusinovna. Ijtimoiy tabaqalanish va siyosiy munosabatlarning folklor leksikasida aks etishi (maqollar misolida).....	289
Avezova Gulnoza Kamilovna. Komil Avazning "Qo'nalg'a" romanidagi frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari.....	292
Mamadqulova Kamila Abdullaxolovna. L.N.Tolstoy asarlaridagi badiiy obrazlar.....	301
Ismoilova Gavharoy Qo'ziboy qizi. Ona tili fanida transmediya hikoyalari orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish.....	310
Ergasheva Mohizarbegim Elmurod qizi. Arab tilidagi asosiy lahjalarning kelib chiqishi, rivojlanishi va lingvistik xususiyatlari.....	322
Narmuratov Zayniddin Radjabovich. Ingliz va o'zbek tillaridagi education/ta'lim konseptli frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari.....	333
Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna. Bibliya frazeologik tizimida teonimlarni o'rganish: mifonimlarga e'tibor.....	365
Berdimuratova Gulnur Amidullaevna. Qaraqalpaq naqil-maqallarida perzent konsepti.....	368
Yusufova Dilrabo. Nutqiy strategiyalar va professional imij: lingvopragmatik yondashuv.....	371
Rustamov Doniyorbek Avazbekovich. Jadid dramaturgiyasi tilining sotsiopragsmatik qatlami: morfologik ko'rsatkichlar, uslubiy gibridlik va me'yorlash jarayoni.....	374

Qabul qilindi: 25.08.2025

Chop etildi: 30.09.2025

UDK: 811.512.133'42:82-2:008

JADID DRAMATURGIYASI TILINING SOTSIOPRAGMATIK QATLAMI: MORFOLOGIK KO'RSATKICHLAR, USLUBIY GIBRIDLIK VA ME'YORLASH JARAYONI

*Rustamov Doniyorbek Avazbekovich, Toshkent amaliy fanlar universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SOCIOPRAGMATIC LAYER OF THE LANGUAGE OF NEW DRAMATURGY: MORPHOLOGICAL INDICATORS, STYLE HYBRIDITY AND THE PROCESS OF NORMALIZATION

*Rustamov Doniyorbek Avazbekovich, Tashkent University of Applied
Sciences, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology*

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЙ СЛОЙ ЯЗЫКА НОВОЙ ДРАМАТУРГИИ: MORFOLOGICHESKIE ПОКАЗАТЕЛИ, ГИБРИДНОСТЬ СТИЛЯ И ПРОЦЕСС НОРМАЛИЗАЦИИ

*Рустамов Дониёрбек Авазбекович, Ташкентский
университет прикладных наук, доктор философии (PhD) по
филологии*



<https://orcid.org/0009-0000-0038-5324>

e-mail:
doniyorbekrustamov@utas.uz

Annotatsiya: Maqola jadidlar davri sahna asarlarida til vositalarining pragmatik salohiyatini tahlil qiladi hamda dramatik matnning ko'p qatlamli (psixolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik) tabiatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatika, morfologik variantlilik, izofa, sheva unsurlari, monolog–dialog, nutq aktlari, uslubiy gibridlik, me'yorlash.

Abstract: The article analyzes the pragmatic potential of language tools in the stage works of the Jadid period and reveals the multi-layered (psycholinguistic, sociolinguistic, pragmatic) nature of the dramatic text.

Key words: sociopragmatics, morphological variation, izafet, dialectal elements, monologue–dialogue, speech acts, stylistic hybridity, standardization.

Аннотация: В статье анализируется прагматический потенциал языковых средств в сценических произведениях периода джадидов и раскрывается многослойная (психолингвистическая, социолингвистическая, прагматическая) природа драматического текста.

Ключевые слова: социопрагматика, морфологическая вариативность, изафет, диалектные элементы, монолог–диалог, речевые акты, стилистическая гибридность, нормирование.

Kirish. Dramatik matnlarda til vositalari-ning pragmatik salohiyati, ayniqsa, kuchli namoyon bo'ladi. Jadidlar davrida yaratilgan ilk dramalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dramatik matnda morfologik birliklar sotsiopragmatik imkoniyatlarning alohida maydonini yuzaga chiqaradi; buni ishonchli tasdiqlash uchun ana shu dastlabki sahna asarlarini tizimli o'rganish va grammatik jihatdan tahlil qilish zarur. Jadidlar ijodining til xususiyatlari – mumtoz adabiyot an'analari, Chor hukmronligi oqibatida **xorijiy**

o'zlashmalarning keng kirib kelishi, adabiy me'yorni yangidan yaratish sa'y-harakatlari hamda puristik qarashlar – o'zaro qo'shilib, **sinkretik** (aralash) qiyofa kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Yevropa adabiyotining ta'siri jadidlarning badiiy matnlarida ham seziladi. Markaziy Osiyoga **teatr**ning kirib kelishi fan va madaniyat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dastlabki o'zbek dramalari 1913-yilda paydo bo'lganiga qaramay, B.O.Petovski "Inqilob" jurnalida

(1909) Qorako'lda o'zbek teatri namoyish etilgani haqida ma'lumot beradi. "Turkiston viloyatining gazeti" (1910) sahifalarida ham "Toshkentda tez fursatda musulmon jamiyati tomonidan muqallid o'yini – teatr ochiladi" mazmunidagi xabar e'lon qilingan.

Jadid davrida **til** va **uslub** xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan: Fitrat asarlarining leksikasi (Y.Saidov) [6.24], o'zbek **jadid dramalari** xususiyatlari (F.Bobojonov) [3.23], Abdulla Avloniy leksikasi (S.Normamatov), Cho'lponning badiiy mahorati (M.Yo'ldoshev) [4.26], Abdulla Qodiriy matnlarining turli aspektlari (Z.Choriyeva, X.Qahharova, L.Jalolova) va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil jarayonida sotsiopragsmatik metod asosida dramatik nutqda morfologik birliklarning ijtimoiy rol, kommunikativ strategiya, nutq aktlari va gender stereotiplarini ifodalashdagi funksiyalari aniqlash-tirildi. Morfologik tahlilda variantlilik (-ib/-ub, -gan/-g'on, -dur/-dir, -ar/-ur va boshqalar), eskirgan va dialektal shakllarning pragmatik yuklamasi funksional-uslubiy yondashuv orqali izohlandi.

Tahlil va natijalar. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida adabiy tilning mustaqil shakllanishi, me'yorlar takomili, matbuot va badiiy ijod tilining barqarorlashuvi buning yaqqol dalilidir. Demak, qariyb **yarim asrlik** oraliqda hududiy til (sart/-chig'atoy/o'zbek) g'arbiy turkiy ta'sir bilan qorishgan bo'lsa-da, bu tabiiy o'tish davri bo'lgan [1.240].

Qo'qon xonligining ko'tarilishi va tanazzuli haqida batafsil ma'lumot beruvchi "**Tarixi Turkiston**" manbasi Farg'ona mintaqasidagi asosiy etnik guruhlarini "Qozoqiyya, Qirg'iziyya, O'zbekiyya, Sartiyya" tarzida tasniflaydi. Muqaddimada muallif Mullo Olim Maxdum Hoji turk va o'zbeklar ajdod xotirasini asrashda tirishqoq ekani, biroq "Turkiston Sartiyyalari" tarixga beparvo bo'lib, ikki-uch avloddan narini ham bilmasligini aytadi; shuning uchun u **chig'atoy turk tilida** soddaligi bilan "Tarixi Turkiston"ni yozishga kirishganini bayon qiladi. Bu yerda "sartlar" foydalangan til aynan chig'atoy turkisi ekani diqqatga sazovor. "Shajarai Turk" muallifi Abulg'azi Bahodirxon esa asarini hushyorlik bilan "turkiy til"da yozganini, **arab-fors unsurlarini** qorishtirmaganini ta'kidlaydi; demak, chig'atoy turkisi ko'chmanchi turkiylar uchun nisbatan qiyinroq bo'lishi mumkinligi ehtimoli bor[2.393].

Fonetik qatlamda **i-u** unlilari ba'zan aralash ko'rinishda keladi: *kelib~kelub, aytib~aytub*. Bu farqlar qo'shimcha paradigmatlarda faolroq ko'rinadi:

-ib/-ub: *borub, aytub, so'zlatub, uqdurub, bildirub*. Ayrim leksikalarda **singarmonizm** unsurlari saqlanadi: *borub, gapurub, o'lturma, kelub*.

-ar/-ur: *keltirur, ko'rishtirur, qoldirur, ko'maklashursiz, bo'lur, tutintirurman*.

-sh/-ish; -moq: "*tizzangga bosh qo'yib shodlik yig'ilarini bitkazmoq edim*" (Burungi qozilar); "*Niyating bizni sharmanda qilmoqmi?*" (Juvonmarg).

-ga/-g'a: "*(U yoq bu yoqg'a yurub)... hollarg'a qoldim*".

-gan/-g'an/-g'on: *ketg'on, ayrilg'on, o'ldirg'on, ayirg'on, boradurg'on*. Masalan: "*Koshki, borg'on elimdan... kelmag'on bo'lsam edi... ko'rmag'on bo'lar edim*".

-gan/-gon: *ayirgon, uyalgon, ko'rgon, bilgon, ayblagon*. Masalan: "*Turkiston bolalari... yo'lg'a kirgon... tarqqiyg'a qadam bosg'on deb o'ylagon edim*".

-il/-in: *ichin, tashin, ko'nglin, uyin, uyqusinda*. Masalan: "*Yovrupoda turg'on vaqtimda... oilalar ichinda... odat qilub qolg'on edim*".

-li/-lik: *namatlik, gullik, chaqalik, oqchalik, tijoratlik*. Masalan: "*...aqllik miyangiz... qo'ling'izg'a berar*" (A.Avloniy, Biz va Siz).

-dir/-dur: *aytadur, ko'rsatadur, boradur, onglamaydur*. Masalan: "*Men osmondan savol qilsam... javob beradur*". Bu shakl deyarli barcha jadid dramalarida keng uchraydi.

-dilar/-arlar: *kulisharlar, aytarlar, ayblaylar, borarlar, kelarlar*. Masalan: "*...kattig'roq kirushsam... kularlar, tushunmaylar*".

-iq/-ug': *qaromug', qattug, tortu'g, sassug'*. Masalan: "*Burunni sassug' deb kesib bo'lmaydur*" (A. Avloniy).

-digan/-durg'on: *aytadurg'on, boradurg'on, ko'ndiradurg'on, bilmaydurg'on*. Masalan: "*...qiyin kechadurg'ong'a o'xshaydur*".

-ir/-ur: *ayuring, ko'chur, gapur: "Qani, gapuring, o'glim"*.

-im/-um: *ko'zum, ko'nglum, o'zum: "ko'zum birlan ko'rmag'on kishimg'a..."*.

-dik/-duk: *ko'rduk, unamaduk, berduk: "oq o'rashub kelduk"*. **-I > -u** varianti Avloniy, Fitrat, Qodiriy dramalarida xos; Hamzada ba'zan uchraydi; Paranj sirlarida **-duq** ikki o'rinda qayd etiladi.

-sin/-sun: *borsun, aytun, bildirmasun: "Finagi ham qursun"*.

-mi/-mu: *ayblaymu, sorasinmu, gapurmasunmu, o'ylasanmu*.

-ish/-ush: *ketushluk, borush, yurush*. Bu shakl Abdulla Badriyning Javonmargida faol; Hamza dramalarida **-ush** kam.

Shuningdek, davrning fonetik jarayonlari – **“tortilish”** (G‘.Abdurahmonov): bo‘g‘in tushishi/tortilishi (*qilsa men → qilsam; tun birla → tunla*). Xoji Muin (*To‘y*), Avloniy (*Biz va Siz*), Fitrat (*Chin sevish*), Cho‘lpon (*Yorqinoy*)da tongla shakli **“tong bilan”** ma’nosida qo‘llanadi. Keltir o‘rnida ketur: *“Abdulahad, ... ketur”*; *“...tayin et, juvonni ketursun”* (H.Muin, *To‘y*).

Morfemik sathda **so‘z yasaliishi** affiksatsiya va kompozitsiya yo‘li bilan kechadi; tizim singarmonizmga muvofiq fonetik o‘zgarishlar bilan birga ishlaydi.

O‘zlashma bazalarga turkiy qo‘shimchalar ham samarali ulanadi; hatto tri-komponent (fors-tojik+arab+turkiy) qoliplar: *be+ma’ni+lik, no+rozi+lik, be+maza+lik*; arab+fors+turkiy: *vafo+dor+lik, qalam+kash+lik* va h.k.

– Arabcha bazadan: *shariat, ablahlik, maymunliq, mezonliq, mirzoliq, faqirlik, farzlig‘, xufiyalik, yatimlik*.

– Fors-tojik bazadan: *andishalik, darxonliq, domodliq, dushmanlik, jonbozlik, qahramonliq, nodonliq*.

–**siz** yordamida arabcha bazadan: *adabsiz, ahamiyatsiz, vazifasiz, davosiz, daraksiz, zararsiz, izzatsiz, ilmsiz, hissiz*; fors-tojik bazadan *andishasiz, baxtsiz, gunohsiz, go’shtsiz, ozorsiz, rangsiz, umidsiz, hushsiz*.

–**lan** yordamida arabcha bazadan: *adablanmoq, zavqlanmoq, kifoyalanmoq, rohatlanmoq, taajjublanmoq*; fors-tojik bazadan: *jonlanmoq, zorlanmoq, sustlanmoq, umidlanmoq, hezlanmoq, shodlanmoq*.

Izofali tuzilmalar – fors-tojik tilining muhim belgilari – keng qo‘llanadi. D.Ne’matova (Cho‘lpon bo‘yicha) bu ko‘p tillilikni bir necha omil bilan tushuntiradi:

1) adabiy tilga arab–fors ta’sirining tarixiy kuchi va ziyolilarning **“eskicha”** ta’lim olgani;
2) turk–tatar nashrlarining Turkistonda keng tarqalganligi;

3) mustamlaka sharoitida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar;

4) adabiy tilning hali to‘la **milliylashmaganligi**[5.4].

Morfologiyada: otlarda bugungi me’yor nuqtayi nazaridan eskirgan shakllar (*yigrovlik, ibdosh*), olmoshlarda (*qandoq, mendin, shundoq, mundane, allaqandaga, andoq, o’shul*), sifatlarda (*hamiyatsiz, puraql*), fe’llarda (*sob bo’lmoq, qutlanmoq*), yordamchi qatlamda modal birliklar

(*koshki*) uchraydi. **Leksikada** arabcha–forscha o‘zlashmalar bilan yonma-yon ruscha birliklar: *pristuf, zakun, istakon, istarshina*. **Morfologik** ko‘rinishlarda qo‘shimchalar variantlari: **–ib/–ub** (*borub*), **–gan/g‘on** (*o’lturg‘on*), **–miz/muz** (*beramuz*), **–ar/ur** (*berur*), **–lik/liq** (*do’xturliq*). Shuningdek, sifatdash **–duk, –gon**, ravishdosh **–ub, –goni**, o‘tgan zamon **–ti, –dur**, hozirgi zamon **–yur**, hozirgi–kelasi **–ur**, kelasi **–yir, –g‘ay**, harakat nomi **–ur**, ortirma nisbat **–dur**; to‘liqsiz fe’llar *edi, emish, ekan* ko‘rinishlarida *ekon, edu* tarzida, *bilan* ko‘makchisi *ilan, birla, ila* shakllarida uchraydi.

Umuman, jadid dramalari tilining asosiy lingvistik belgilari quyidagicha:

– medisatsiya **va** gibrizatsiya jarayonlarining kuchayishi;

– o‘zlashma leksemalar ulushining ortishi;

– **izofalarning** faol qo‘llanishi.

Xulosa. Tadqiqotchilar dramalar tilini quyidagicha baholaydilar: lug‘aviy tarkib hozirgi adabiy tildan bir oz farqlansa-da, bugungi kitobxon uchun asosan tushunarli – chunki matndagi birliklarning 90–95 foizi an’anaviy qatlam va so‘zlashuv nutqiga mansub. Demak, davr tili murakkab qatlamli: eski o‘zbek adabiy tili, umumturkiy qatlami va hozirgi o‘zbek adabiy tili unsurlari, shuningdek, ko‘p tildan kirgan o‘zlashmalar birga yashaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos birliklarni XX asr boshiga to‘la ko‘chirish ham asossiz: til hodisasi tarixiy bosqichlar o‘rtasida simmetrik takrorlanmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normamatov S.E. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni. Filol.fan. Dok(DSc)...diss – Toshkent, 2019.
2. Song Ho Lim.Chig‘atoy turkiyining adabiy-uslubiy xususiyatlari (XIX asr Farg‘ona tarixiga oid asarlar misolida) //FarDU ilmiy xabarlar. 2022.
3. Бабаджанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.
4. Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол.фан. номз...дисс.автореф.–Т.: 2000.
5. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2004.
6. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автор.–Тошкент: 2001.
7. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.